

# Plastik qadoqlarning jahon bozori 2025-yilda 465 milliard dollarni tashkil etishi mumkin

// 03.02.2025

<https://uzkemyosanoat.uz/oz/press/news/plastik-qadoqlarning-jahon-bozori-2025-yilda-465-milliard-do>



Plastik qadoqlar global bozori 2025-yilda 465 mlrd dollarga baholanmoqda va 2034-yilga kelib, taxminan 664 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda. 2024-yilda bu ko'rsatkich 447 mlrd dollarni tashkil etgan. Bu haqda Precedence Research tahvilili tadqiqotida so'z borgan.

2024-yilda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi 45 % - 201 mlrd dollar ulush bilan yetakchi o'rnlarni egalladi. Hisobotga ko'ra, mintaga qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, shaxsiy gigiyena vositalari, maishiy elektronika, farmatsevtika va boshqa mahsulotlarning yuqori iste'moli tufayli yetakchilikni qo'lga kiritgan. O'n yildan so'ng mazkur raqam 302 mlrd dollarga yetishi mumkin.

Kelgusi yillarda Yevropa eng jozibador bozorga aylanishi kutilmoqda. Ekologik toza plastik qadoqlash yechimlariga, shu jumladan farmatsevtika sanoatiga talabning ortib borishi mintaqadagi o'sishning asosiy omiliga aylanishi mumkin.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**